



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 23-may, shanba,
48 (24.228)-son

O'zbek xalq
maqoli

Erning ishi -
elning bo'yida,
elning ishi -
erning
bo'yida

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



**YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!**



HAYITDA MEHR-SAXOVAT TADBIRLARI AMALGA OSHIRILADI

Davlatimiz rahbari "Muborak Qurbon hayiti munosabati bilan aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mehr-saxovat tadbirlarini samarali tashkil etish to'g'risida" qaror qabul qildi.

Qarorga ko'ra:

- og'ir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan 10 ming nafar bolalarda jarrohlik amaliyoti o'tkaziladi;
- 2,3 ming nafar onkologik, gematologik va onkogematologik tashxis qo'yilgan bemorlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkaziladi hamda ularni davolash va jarrohlik amaliyotini bajarish choralarini ko'riladi;
- kamida 350 nafar bemorlarda jigar va buyrak transplantatsiyasi amaliyoti o'tkaziladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj quyidagi bolalarning omonat hisobvaraqlariga 200 AQSH dollari miqdoridagi pul mukofoti o'tkaziladi:

- yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar (vasiylik, homiylik va patronatdagi bolalar);
- Mehribonlik uylari, oilaviy bolalar uylari,

kichik hajmli bolalar uylari hamda "SOS" bolalar mahallasi tarbiyalanuvchilari;

- Vataniy sarhadlarini himoya qilish yo'lida qurbon bo'lgan ota-onalarning farzandlari;
- "Taskin Children's Hospice" bolalar onkologik shifoxonasida davolanayotgan bolalar.

500 ta masjidida aholi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida ularda zamonaviy tahoratxonalar quriladi, rekonstruksiya qilish yoki ta'mirlash hamda joylardagi qabristonlarni obod qilish ishlari amalga oshiriladi.

Qarorda nazarda tutilgan tadbirlar davlat maqsadli jamg'armalari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan ajratiladigan 690 milliard so'm miqdoridagi mablag'lar hisobidan "Vaqf" xayriya jamoat fondi orqali moliyalashtiriladi.

Qurbon hayiti munosabati bilan muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlar obodonlashtiriladi hamda ushbu maqsadlarda ko'ngilli xayriya hasharlarini o'tkaziladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi toifalari uchun ehson dasturxonlari yoziladi hamda ziyoratgohlar va diniy ta'lim tashkilotlarida qurbonlik tadbirlari tashkil etiladi.

Xayr-baraka, ma'naviy yuksalish bayrami

Prezidentimizning shu yil 20-mayda qabul qilingan qaroriga ko'ra, joriy yil 27-may kuni Qurbon hayiti bayrami sifatida keng nishonlanadi.

Viloyatimizda Qurbon hayitini nishonlashga qizg'in hozirlik ko'rilmoqda. Hayit namozi viloyatning 287 ta masjidida o'qilishi belgilangan. Namozlar joriy yil 27-may kuni soat 05:30 da boshlanadi. Masjidlarda namozdan oldin tinchlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, inson qadri va yurt osoyishtaligi haqida ma'rifiy suhbatlar o'tkaziladi.

Xalqimiz katta shukronalik bilan qarshi olayotgan Qurbon hayiti davomida masjidlar, ziyoratgohlar va mahallalarda poklik, obodonlashtirish va xayriya tadbirlari tashkil etiladi.

Viloyat markazi hamda barcha tumanlardagi yirik masjidlarda namozxonlar uchun xavfsizlik, tartib va qulaylik choralarini ko'rilmoqda. Yo'l harakati xavfsizligi, huquqni himoya qilish idoralari, transport tashkilotlari hamkorligida fuqarolarning ehtiyotkorlik ibodat qilishlari uchun sharoitlar yaratiladi.

Yangilangan Imom Buxoriy majmuasida muborak Qurbon hayiti namozi ko'tarinkilik, yuksak ma'naviy muhit ta'sirida ado qilinadi.

Bu yil Haj mavsumida viloyatimizdan 940 nafarga yaqin ziyoratchi Makka va Madinada bo'lib turibdi. Har bir hoji uchun tibbiy xizmat, dori-darmon, yashash joyi, ovqatlanish va transport logistikasi yo'lga qo'yilgan.

Bu galgi mavsumning eng quvonchli va e'tiborli jihati shundaki, mamlakatimizdan 100 nafar fuqaroning Prezident hojisi sifatida muborak safarga yuborilganidir. Davlatimiz rahbarining yuksak g'amxo'rliги va inson qadriga bo'lgan yuksak e'tibori



tufayli ushbu fuqarolar Haj ibodatini ado etish baxtiga muyassar bo'ldilar. Bu ezgu tashabbus yurtimizda inson manfaatini, mehr-oqibat va saxovat tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etayotganining yana bir ifodasidir. Unutilmas va barcha hojilarning qalbidagi chuqur iz qoldirgan voqealardan yana biri - Prezident Shavkat Mirziyoyevning muftiy Nuriddin Xoliqzayev bilan samimiy muloqot qilib, hojilarimiz uchun yaratilgan sharoitlar, ularning salomatligi va kayfiyati bilan qiziqqan bo'ldi. Ayniqsa, yurtboshimizning hojilarimizga yo'llagan samimiy duo

va ezgu tilaklari Makkai mukarrama va Madinai munavvarada bo'lib turgan ziyoratchilarimiz qalbidagi beqiyos mamnuniyat, faxr va cheksiz shukronalik tuyg'ularini uyg'otdi.

An'anaga muvofiq Hayit ayyomi kunlarida qurbonliklar qilinadi. Qurbonlik qilishning ham tartib qoidalari mavjud. Bu Alloh taolaga bo'lgan taqvo, itoat va shukronalikka amaliy ifodasi. Shariatimizga ko'ra, qurbonlik 10-12 zulhijja kunlari amalga oshiriladi. Qo'y va echki bir kishi nomidan, sigir va tuya esa 7 kishigacha sheriklik asosida so'yilishi mumkin. Qurbonlik hayvoni sog'lom, aybsiz va yetuk bo'lishi lozim. Uning go'shti oila a'zolari, qarindoshlar va muhtojlarga tarqatilishi savobli amaldir.

Ayni kunlarda viloyatimizdagi imom-xatiblar tomonidan aholiga qurbonlik odoblari va shariat qoidalari bo'yicha keng tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Alloh taolo yurtimiz tinchligini, xalqimiz birlamligini yanada mustahkamlasini. Qurbon hayiti barchamiz uchun xayr-baraka, ma'naviy yuksalish va ezguliklar bayrami bo'lsin!

Ahmadxon ALIMOV,
viloyat bosh imom-xatibi.

**SAMARQANDDA
TURKIY DAVLATLAR
SUDYALAR
KENGASHLARI
RAHBARLARI
YIG'ILISHI BO'LIB
O'TDI**



Toyloqliklarning suv muammosi hal bo'ladi

Bugungi kunda Toyloq tumanida yashovchi 231 ming nafar aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 85,5 foizni tashkil qiladi. Qariyb 38 ming aholi yashovchi mahallalarda toza ichimlik suvi qo'lbola kranlar yordamida olinadi. Tumandagi 153 ta suv inshootidan 36 tasi, 351 kilometr suv tarmoqlarining 42 kilometr dan ortig'i ta'mirlanib holatda.



Yaqinda Prezident Administratsiyasi rahbari S.Mirziyoyeva tumanning Bog'ichinor mahallasi Katta Toyloq qishlog'idagi yaroqsiz suv inshootini ko'zdan kechirib, uni qisqa vaqtda soz holatga keltirish yuzasidan mas'ul-larga topshiriq bergandi. Uchta mahallada yashovchi 3250 nafar aholiga xizmat qilishi mo'ljallangan inshoot bugun 320 nafar aholiga xizmat qilyapti. Qolganlar ichimlik suvni

qo'lbola kran va qo'shni qishloqlardan tashib kelib ichishadi.

2007-yilda bir sutkada 384 metr/kub suv chiqaruvchi inshoot qurilgach, 4-5 yil yaxshi ishladi, - deydi suv inshooti xodimi Solijon Egamov. - Yillar o'tib, suv chiqaruvchi motorlar ishdan chiqqa boshladi. Sozlash uchun ehtiyot qismlari yetishmagach, to'laqonli ishlatishning imkon bo'lmadi.

Mazkur suv inshooti o'zining texnik davriy muddatini o'tab bo'lib, yaroqsiz holga kelib qolgan. Ayni paytda bir kecha-kunduzda 4 soat, ertalab 2 soat va kechqurun 2 soat ishlatilmoqda.

- Hozir inshootimiz to'la quvvat bilan ishlagani yo'q, - deydi "Samarqand suv ta'minoti" Toyloq tuman filiali direktori Asqar Shukurov. - Prezident Administratsiyasi rahbari taklifiga binoan yangi loyiha bo'yicha 3,4 milliard so'm mablag' ajratilib, 8,5 kilometr suv tarmog'i tortilishi ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, inshootning himoya devorlari ta'mirlanib, nasos stansiyasi quriladi. Mavjud rezervuarlar rekonstruksiya qilinib, suvni zararsizlantirish uskuna o'rnatiladi va elektr qismlari ta'mirlanadi. Barcha qurilish-ta'mirlash ishlari 2026-yil yakunigacha amalga oshiriladi.

- Bir necha yillardan buyon markaziy ichimlik suvi tarmog'idan foydalana olmaymiz, - deydi mahalla oqsoqoli G'ofir Tursunov. - Tayyor suv inshooti bor lekin ehtiyot qismlari yo'qligidan ishlatilmay turibdi. Bir ishlaganda 320 nafar aholi xonadoniga suv boradi, xolos. Birlilik, Chorog'bon, Bog'ichinor mahallalarida yashovchi 1600 nafar aholi suvni tashib ichadi. Hududda 2 ming o'quvchi o'qiydigan 21-umumta'lim maktabi, 4 ta bog'cha bor. Biz kattalar-ku mayli, lekin bolalarimizni azobga qo'yimasligimiz kerak.

Hozirda tuman bo'yicha 8 ta suv inshootini rekonstruksiya qilish hamda 31,5 kilometr ichimlik suv tarmoqlarini yangisiga almashirish zarur. Buning uchun yana 29,8 milliard so'm mablag' talab etiladi. Bu ishlar yakunlangach, 25,6 ming nafar aholisining ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanadi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

"Yuksak ma'rifatli avlod - Uchinchi Renessans poydevori!"

"So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlari shu shior ostida tashkil etiladi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2025-2026-o'quv yili yakuni munosabati bilan umumta'lim maktablarida "Yuksak ma'rifatli avlod - Uchinchi Renessans poydevori!" shiori ostida "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlari yuqori saviyada tashkil etish belgilandi.

Mazkur tadbirlarni mazmunli va tartibli o'tkazish maqsadida tavsifa va namunaviy ssenariylar ishlab chiqilgan bo'lib, barcha umumta'lim maktablariga yetkazilgan. Tadbirlar davomida a'lo baholarda o'qigan, namunali xulqi va iqtidori bilan tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. O'quvchilarning ota-onalariga esa "Eng faol ota", "Jonkuyar ona", "Mas'uliyatli ota-ona" kabi nomnatsiyalar bo'yicha "Minnatdorchiilik xat"lari topshiriladi.

"So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlari xavfsizlik qoidalari qat'iy rioya qilgan holda maktablarning ochiq va soya-salqin hududlarida tashkil etiladi.

Belgilangan tartibga ko'ra, tadbirlar joriy yilning 25-may kuni ertalab soat 08:00 dan 09:00 ga qadar o'tkaziladi. Shu bilan birga, 25-30-may



kunlari barcha hududlardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Xayr bog'cha - salom maktab!" shiori ostida bitiruvchi tarbiyalanuvchilar uchun tantanali bayram tadbirlari tashkil etilishi belgilangan.

2025-2026-o'quv yilida viloyatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarini jami 123870 nafar o'quvchi bitiradi. Ularning 73322 nafari 9-sinf, 50548 nafari 11-sinf o'quvchilardir. Joriy yilda 11-sinf bitiruvchilaridan 1549 nafari milliy sertifikatga ega bo'lgan. Shulardan 95 nafari 5 ta fandan sertifikatni qo'lga kiritgan. 1945 nafari muddatidan oldin talablikka ega bo'lgan.

Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi axborot xizmati.

YANGI TARAQQIYOT MARRASIDA

O'tgan yil 27-dekabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi qaror asosida viloyatimizdagi barcha tuman va shaharlarni 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar hokimlar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida taqdimot qilinib, tasdiqlandi. Ayni paytda barcha tuman va shaharlarda belgilangan vazifalar ijroga qaratilgan. Bunda har bir tuman (shahar) ixtisoslashuvi, geografik joylashuvi, tabiiy xomashyo va yer resurslari hamda infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, qiyosiy ustunligi asosida "namunalari va metodik" hududga aylantirilmoqda.

XO'SH, BU REJALAR NIMALARDAN IBORAT?

Bugun O'zbekistonning har bir hududi o'zining rivojlanish strategiyasini qayta ko'rib chiqmoqda. Bu jarayonda asosiy e'tibor faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga emas, balki inson omiliga, aholining turmush darajasiga va ijtimoiy barqarorlikka qaratilmoqda. Xususan, Ishtixon tumanida ham keng ko'lami islohotlar amalga oshirilib, hududning yangi iqtisodiy qiyofasi shakllantirilmoqda.

Joriy yil uchun belgilangan maqsad va vazifalar mazkur tuman boshqaruvi tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini yaqqol namoyon etadi. Endi asosiy mezon sifatida yalpi raqamlar emas, balki har bir oilaning daromadi, aholining hayot sifati va inson qadri ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Ishtixon tumanida amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ijtimoiy adolatni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda.

RAQAMLAR ORTIDAGI HAQIQAT YOKI QULAYLIK VA SIFAT SARI DADIL QADAM

Yil yakunigacha Ishtixon tumanini iqtisodiyotda sezilarli o'sish bo'lishi kutilmoqda. Jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 trillion 416,3 milliard so'mga yetkazilishi rejalashtirilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan qariyb 10 foizlik o'sishni anglatadi.



Yil davomida umumiy qiymati 513 milliard so'mlik 8 ta yirik sanoat loyihasi ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Ushbu loyihalar nafaqat ichki bozorni mahsulotlar bilan ta'minlash, balki eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Ayniqsa, "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining "Ko'tarma" massivida amalga oshirilayotgan ishlar e'tiborga loyiq. Bu hududda yangi sanoat korxonalarini tashkil etilib, ular zamonaviy texnologiyalar asosida ish yuritiladi. Natijada ushbu massivning o'zidayoq 7,3 million dollarlik mahsulot eksport qilinishi kutilmoqda.

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasi ham jadal

rivojlanmoqda. Joriy yilda mazkur sohada 119 foizlik o'sishga erishish rejalashtirilgan.

Markaziy ko'chalardan biri to'liq qayta qurilib, zamonaviy servis hududiga aylantiriladi. Bu yerda ko'ngilochar maskanlar, savdo do'konlari va xizmat ko'rsatish shoxobchalari tashkil etiladi.

Transport va aloqa sohaslarida ham sezilarli o'zgarishlar bo'ladi. Yo'lovchi tashish xizmatlari sifat jihatidan yaxshilanib, internet va raqamli xizmatlar qamrovini kengaytiriladi. Aloqa sohasida 157,4 milliard so'mlik xizmatlar ko'rsatilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, yo'l bo'yi servisi rivojiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Yo'l yo'qalarida yangi oshxonalar, dam olish

maskanlari va servis nuqtalari tashkil etiladi. Buning uchun 60 ta yer maydoni auktsion orqali tadbirkorlarga beriladi.

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA YANGI YONDASHUV

Tumanda kambag'allikni qisqartirishda eng muhim jihat aholiga faqat moddiy yordam berish emas, balki ularni barqaror daromad manbai bilan ta'minlashdir.

Shu maqsadda "Sayxunobod tajribasi" asosida 2480 ta mikroloyiha amalga oshiriladi. Bu loyihalar mahallalarda kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan, 54 ta loyiha qishloq xo'jaligida, 868 tasi xizmat ko'rsatish sohasida, 558 tasi sanoat yo'nalishida amalga oshiriladi. Natijada qariyb 5 ming nafar fuqaro doimiy ish bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari, 11 mahalla muayyan sohalarga ixtisoslashtiriladi. Masalan, ayrim hududlarda ko'chatchilik, boshqalarida qulupnay yoki sabzavot yetishtirish rivojlantiriladi. Bu esa resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

"Teng imkon" dasturi doirasida 255 nafar nogironliq bo'lgan shaxs ishga joylashtiriladi. Shuningdek, kambag'allik reestriga kiritilgan 2049 ta oilaning a'zolari kasb-hunarga o'qitiladi va ularga tadbirkorlikni boshlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Joriy yilda tuman iqtisodiyotiga 155 million dollarlik xorijiy investitsiya jalb etilishi rejalashtirilgan. Bu esa hududda yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilishi, innovatsion texnologiyalar joriy etilishi va yangi ish o'rinlari tashkil etilishini anglatadi. Eksport hajmi esa 28,1 million dollarga yetkaziladi. Asosiy eksport mahsulotlari sifatida meva-sabzavotlar va sanoat mahsulotlari belgilangan.

INFRAUZILMANING YANGI QIYOFASI YOKI AGRAR SOHADA ZAMONAVIY YONDASHISH

2026-yilda qurilish hajmini 121 foizga yetkazish rejalashtirilgan. 9 ta ko'p qavatli uy quriladi, ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanib, qamrov darajasi 64 foizga yetkaziladi.

Elektr ta'minoti bo'yicha 28 kilometr yangi tarmoq tortilib, 132 ta transformator ta'mirlanadi.

Tuman iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rin tutadi. 2026-yilda mazkur sohada innovatsion texnologiyalar keng joriy etiladi. Paxta yetishtirishda zamonaviy tajribalardan foydalaniladi. 3465 gektar yerda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinib, resurslardan samarali foydalaniladi.

INSON KAPITALI YUKSALISHI UCHUN...

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili - inson kapitali. Shu bois ta'lim va tibbiyot sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktablarda xorijiy tillar ta'limi kuchaytirilib, o'qituvchilarning malakasi oshiriladi. Yangi kompyuterlar va zamonaviy o'quv jihozlari yetkazib beriladi.

Sog'liqni saqlash sohasida 74 mingdan ortiq aholi tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. 5 ta yangi oilaviy poliklinika qurilib, tibbiy xizmatlar sifati oshiriladi.

Tumanning turizm salohiyatini oshirish maqsadida "Oqdaryo" suv ombori atrofida ekoturizm maskani tashkil etiladi.

Umuman, Ishtixon tumanining 2026-yilga mo'ljallangan rivojlanish dasturi keng qamrovli va chuqur o'ylangan strategik hujjatdir. Belgilangan vazifalar to'liq va sifatlil amalga oshirilsa, tuman nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha, balki aholi farovonligi bo'yicha ham respublikada ilg'or hududlardan biriga aylanishi shubhasiz.

To'liq SIDDIQOV.

Elektron tijorat — zamon talabi

huquqiy asoslar ham bu talabga mos bo'ladi

Jahon bozorlarida raqamli iqtisodiyot tushunchasi allaqachon yetakchi mavqega chiqdi. Savdo-sotiqning an'anaviy shakllari — do'konlar, bozorlar va uzun navbatlar asta-sekin o'z o'rnini masofaviy, tezkor va xavfsiz elektron platformalarga bo'shatib bermoqda. Xo'sh, bu jarayonlar O'zbekistonda qanday kechmoqda? Mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun qanday sharoitlar yaratilgan va bu oddiy fuqarolar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?



Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada tegishli qonun, muhim qaror va dasturlar qabul qilinmoqda. Natijada elektron tijorat bozori ham jadal rivojlanyapti: bugun odamlar uyidan chiqmagan holda tovar va xizmatlarni sotish, xarid qilish, to'lovlarini amalga oshirish hamda shartnomalar tuzish imkoniga ega. Ayni paytda yurtimizda minglab tadbirkorlar internet orqali o'z mahsulotlarini sotmoqda, bu savdo orqali aholi vaqt va mablag'ni tejagan holda xarid qilmoqda.

Mamlakatimizda raqamli savdoni tartibga soluvchi eng asosiy hujjat bu «Elektron tijorat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunidir. Qonun 2022-yilda yangi

tahrirda qabul qilinib, sohadagi munosabatlarni zamon talablari asosida tartibga solishga qaratilgan muhim normalar belgilangandi.

Unda elektron shaklda tuzilgan, elektron raqamli imzo yoki tomonlarni identifikatsiya qilishning boshqa xavfsiz usullari bilan tasdiqlangan shartnomalar xuddi muhr bosilgan qog'oz hujjat kabi to'liq qonuniy kuchga egaligi belgilab qo'yilgan.

Qonun bo'yicha elektron tijorat operatorlari va sotuvchilari o'zlariga haqida, mahsulotning haqiqiy xususiyatlari va yakuniy narxi (barcha soliq va yig'imlar bilan birga) to'g'risida xaridorga to'liq va to'g'ri ma'lumot berishga majbur.

Senator minbari

Albatta, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish jarayoni ham izchil davom ettirilishi zarur. Chunki texnologiyalar tez o'zgarimoqda. Yangi raqamli xizmatlar, sun'iy intellekt, elektron logistika va xalqaro onlayn savdo munosabatlari huquqiy jihatdan ham zamon talabiga mos ravishda tartibga solib borilishi kerak.

Shu bois "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunga qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritilmoqda. O'quvchida savol tug'ilishi tabiiy, elektron tijoratga oid qonunchilikning takomillashishi jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qanday o'zgarishlarni amalga oshirmoqda?

Bilamiz, an'anaviy savdoda naqd pul aylanmasi ko'pligi sababli soliqlardan qochish, kirim-chiqimni yashirish holatlari ko'p uchraydi. Elektron tijoratda esa har bir tranzaksiya, har bir to'lov raqamli iz qoldiradi. Bu esa yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytiradi, davlat budjetiga tushumlarni ko'paytiradi. Budjetga tushgan mablag'lar esa o'z-o'zidan maktablar, shifoxonalar qurishga, nafaqa va ish haqini oshirishga yo'naltiriladi.

Bugungi kunda O'zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Ularni zamonaviy va yuqori daromadli ish bilan ta'minlash davlatimizning bosh maqsadlaridan biri. Elektron tijorat sohasi faqat sotuvchilardan iborat emas. Bu soha atrofida butun bir ekotizim shakllanadi: IT-mutaxassislar va dasturchilar (sayt va mobil ilovalar yaratuvchilar), logistika va kuryerlik xizmatlari (mahsulotni yetkazib beruvchilar), marketologlar va SMM mutaxassislari (mahsulotni reklama qiluvchilar).

Qonunchilik tomonidan ushbu sohalarga erkinlik berilishi natijasida yuz minglab yoshlarimiz masofadan turib, o'z uylarida o'tirgan holda daromad topish imkoniyatiga ega bo'lyapti.

Sohada hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham yo'q emas. Ayrim hududlarda internet tezligi yetarli darajada emasligi, aholining raqamli savodxonligi pastligi yoki kiberxavfsizlik bilan bog'liq muammolar mavjud. Shuning uchun bu borada davlat idoralari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorlikda ishlashi muhim.

Maryam NIYOZOVA, Oliy Majlis Senati a'zosi.



Keyingi yillarda axborot texnologiyalari hayotimizda chuqur o'rin egallamoqda. Ayniqsa, "Face ID", ya'ni shaxsning yuzini tanish orqali shaxsini aniqlash tizimi ko'plab qurilmalarda qo'llanila boshladi. Albatta, bu tizim foydalanuvchilarga bir qator qulaylik yaratib, parol va kodlardan voz kechish imkonini berdi. Biroq har qanday qulaylik ortida ma'lum xavf ham yashiringan. Buni aynan "Face ID" qurilmasidan g'araz niyatda foydalanib, firibgarlik jinoyatlari sodir etilayotgani misolida ko'rish mumkin.

Ishonch ortidagi xiyonat yoxud Face ID orqali sodir etilgan o'g'irlik

Mutaxassislar ta'kidlashicha, firibgarlarga bu qurilmadan g'arazli niyatda foydalanishda odamlarning soddaligi, ishonuvchanligi va texnologiya haqidagi yetarli bilimiga ega emasligi qo'l kelmoqda. "Face ID" bu oddiy qurilma emas, balki shaxsiy biometrik kalit hisoblanadi. Shu ma'noda, uni boshqalarga berish shaxsiy hujjatingizni o'z qo'lingiz bilan topshirish bilan barobar.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyo miqyosida biometrik ma'lumotlar bilan bog'liq kiberjinoyatlar soni qariyb 40 foizga oshgan. Ayniqsa, yuzni tanish tizimlaridan foydalanish orqali amalga oshirilayotgan firibgarliklar tez sur'atlarida ko'payib bormoqda.

Imron (ism-shariflar o'zgartirildi) Gulniso bilan 2024-yilning noyabr oyida ko'chada tasodifan tanishib qoladi. Ammo bu oddiygina tanishuv keyinchalik ancha jiddiylashadi, bora-bora o'rtalarida iliq munosabat paydo bo'ladi. Gulnisoning ota-onasi va akalari xorijda ishlab, uning nomiga pul jo'natib turishardi. Gulniso bank muassasasiga pullarni omonatga qo'yib, o'zining telefon apparatiga o'rnatilgan ilova orqali uni nazorat qilib borardi. Aniq yodida, 2025-yilning 19-noyabr kuni bankdagi omonatga 2 ming 200 AQSh dollari qo'ygach, mablag'ning jami miqdori 317 million so'mga yetgandi. Oradan o'n kun o'tib, telefoni orqali omonatdagi pullarni tekshirib ko'rsa, 100 million so'm yo'q. Avval 20 million so'm, keyinroq ko'lib-bo'lib yana 80 million, jami 100 million so'mni kimdir yechib qoldi. Gulniso kutilmaganda bunday katta miqdordagi pulidan ayirilib qolganidan qattiq tashvishga tushadi. Haqiqiy holat oydinlashganida esa, butkul o'zini yo'qotib qo'yadi...

Yuqorida Imron bilan Gulniso o'rtasida iliq munosabat yuzaga kelganini aytgandik. Kunlardan bir kun ular Toshkent shahriga borib, aylanib kelishni rejalashtirishadi. Imron bilan o'rtog'i Shohruh, Gulniso bilan dugonasi Jasminalar besh kun davomida poytaxtda sayr qilishadi. Imron o'ziga qimmatbaho kiyim-kechak, yangi rusumdagi telefon apparati Gulniso ga ham yangi telefon apparatidan tashqari kiyim-kechaklar sotib olib, sovg'a qiladi. Voqea bayonidan o'quvchida biron-bir joyda ishlamaydigan yosh yigit buncha sarf-xarajatlar uchun mablag'ni qayerdan oldi, degan savol tug'ilishi tayin. Haqiqatan ham, sudlanuvchi Imron Boqiev Gulniso Imomova bilan yaqin munosabatlardan foydalanib, uning mobil telefoniga noqonuniy ravishda kirish imkoniyatini qo'lga kiritgan. "Face ID" tizimi orqali o'zining yuzi tasvirini qurilmaga kiritib, telefondagi ilovalarga to'siqsiz kirish huquqiga ega bo'lgan. Shu orqali u jabrlanuvchiga tegishli bank ilovasiga kirib, bir necha kun davomida mablag'larini o'zlashtirgan. Natijada jami 100 million so'm mablag'ni talon-toroj qilgan.

Sudda ushbu jinoyi qilmishga huquqiy baho berildi. I.Boqiev Jinoyat kodeksining 169-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan aybdor, deb topildi. Sudlanuvchining aybiga iqrorligi, qilmishidan pushaymonligi, yetkazilgan zarar uning otasi tomonidan to'liq qoplangani va jabrlanuvchining da'vosi yo'qligi kabi holatlar inobatga olindi. Sudlanuvchiga 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Yuqorida tafsiloti bayon etilgan jinoyi qilmish bugungi kunda axborot xavfsizligi masalasiga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini yana bir bor ko'rsatadi. Yashirishga hojat yo'q, bugungi kunda ko'pchilik fuqarolar mobil qurilmalardan foydalanishda oddiy xavfsizlik qoidalari ga amal qilmaydi. Xususan, telefonni boshqalarga berish, parollarni oshkor qilish yoki biometrik himoya tizimlariga boshqa shaxslarni kiritish kabi holatlar yuqorida bayon etilgan singari jinoyi qilmishlar ro'yi berishiga sabab bo'ladi.

Zarifa AHMEDOVA, jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudi sudyasi.

“SAMARQANDDONMAHSULOTLARI”**aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari diqqatiga!**

“Samarqanddonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2026-yil 10-iyun kuni (haftaning chorshanba kuni) soat 10:00 da jamiyat majlislar zalida o'tkaziladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBI:

1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining sanoq komissiyasi va ishchi prezidiumi a'zolarini saylash.
2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibi va reglamentini tasdiqlash.
3. Jamiyat kuzatuv kengashining 2025-yilda bajarilgan ishlari bo'yicha hisobotini tasdiqlash;
4. Jamiyatning 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik moliya hisobotini tasdiqlash.
5. Jamiyat boshqaruv raisining 2025-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati, biznes rejaning bajarilishi, yilning asosiy natijalari hamda joriy yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar to'g'risida hisobotini tasdiqlash.
6. Jamiyatning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotni hamda xalqaro audit standartlariga muvofiq 2025-yil uchun o'tkazilgan tashqi audit tekshirish natijalarini ko'rib chiqish.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagi PQ-4426-sonli qarori talablariga muvofiq, jamiyat boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha o'rinbosarining 2025-yil yakunlari bo'yicha hisobotini tasdiqlash.
8. Jamiyatning 2025-yil yakuni bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash yuzasidan mustaqil tashkilotning xulosasini tasdiqlash.
9. Jamiyatning 2025-yil yakunlari bo'yicha sof foydasini taqsimlash.
10. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning tarkibini ko'rib chiqish va a'zolarini saylash.
11. Jamiyat boshqaruv a'zolarini tarkibini ko'rib chiqish va saylash.
12. Jamiyatning 2026-yilgi faoliyatini majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash.
13. Korxonada xaridlar jarayonining shaffofligi, asosilligi, shu jumladan, mahalliy mahsulotlarning sifat va narx bo'yicha belgilangan parametrlarga muvofiq qilingan import xaridlarini, shuningdek, valyuta resurslaridan samarali foydalanilishi to'g'risida tashqi audit xulosasini tasdiqlash.
14. 2026-yil uchun ma'qullangan biznes rejasini

tasdiqlash.

15. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 22-dekabr-dagi 01/09-2-17/4340 va 2026-yil 3-martdagi 02/09-2-17/900-sonli xatlari to'g'risida.

16. Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash.
Hurmatli aksiyadorlar! Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi axborot va boshqa ma'lumotlarni jamiyat aksiyadorlariga sifatli va tezkor ravishda yetkazilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, elektron pochta orqali amalga oshirilishini inobatga olib, sizdan elektron pochta manzillarini (Email) taqdim etishingiz lozimligini ma'lum qilamiz.

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxatini tuzish hamda yig'ilish o'tkazilishi haqida xabarnoma olish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2026-yil 18-may kuniga va umumiy yig'ilishga qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2026-yil 4-iyun kuniga belgilandi.

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish 2026-yil 10-iyun kuni soat 09:00 dan 10:00 ga qadar davom etadi. Yig'ilishga aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari, ularning vakillari esa amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnomalar bilan kelishlari so'raladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig'ilishida ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha ma'lumot va materiallar bilan "Samarqanddonmahsulotlari" AJ da ushbu xabar e'lon qilingan kundan boshlab, yig'ilish o'tkaziladigan kunga qadar soat 09:00 dan 10:00 gacha tanishishingiz mumkin.

Murojaat uchun telefonlar: **+99866-239-55-04.**
 Jamiyatning rasmiy veb-sayti: **www.samdon.uz**
 Elektron pochta manzili: **samarqanddon@umail.uz**
 Manzilimiz: **Samarqand shahri Ziyokorlar ko'chasi, 4-uy.**

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.**“OQTOSHDON”****aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari diqqatiga!**

“Oqtoshdon” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2026-yil 10-iyun kuni (haftaning chorshanba kuni) soat 14:00 da jamiyat majlislar zalida o'tkaziladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBI:

1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining sanoq komissiyasi va ishchi prezidiumi a'zolarini saylash;
2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibi va reglamentini tasdiqlash.
3. Jamiyat kuzatuv kengashining 2025-yilda bajarilgan ishlari bo'yicha hisobotini tasdiqlash.
4. Jamiyatning 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik moliya hisobotini tasdiqlash.
5. Jamiyat boshqaruv raisining 2025-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati, biznes rejaning bajarilishi, yilning asosiy natijalari hamda joriy yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar to'g'risida hisobotini tasdiqlash.
6. Jamiyatning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotni hamda xalqaro audit standartlariga muvofiq 2025-yil uchun o'tkazilgan tashqi audit tekshirish natijalarini ko'rib chiqish.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagi PQ-4426-sonli qarori talablariga muvofiq, jamiyat boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha o'rinbosarining 2025-yil yakunlari bo'yicha hisobotini tasdiqlash.
8. Jamiyatning 2025-yil yakuni bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash yuzasidan mustaqil tashkilotning xulosasini tasdiqlash.
9. Jamiyatning 2025-yil yakunlari bo'yicha sof foydasini taqsimlash.
10. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning tarkibini ko'rib chiqish va a'zolarini saylash.
11. Jamiyat boshqaruv a'zolarining tarkibini ko'rib chiqish va saylash.
12. Jamiyatning 2026-yilgi faoliyatini majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash.
13. Korxonada xaridlar jarayonining shaffofligi, asosilligi, shu jumladan, mahalliy mahsulotlarning

sifat va narx bo'yicha belgilangan parametrlarga muvofiq qilingan import xaridlarini, shuningdek, valyuta resurslaridan samarali foydalanilishi to'g'risida tashqi audit xulosasini tasdiqlash.

14. 2026-yil uchun ma'qullangan biznes rejasini tasdiqlash.

15. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 22-dekabr-dagi 01/09-2-17/4340 va 2026-yil 3-martdagi 02/09-2-17/900-sonli xatlari to'g'risida.

16. Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash.

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish 2026-yil 10-iyun kuni soat 11:00 dan 12:00 ga qadar davom etadi.

Yig'ilishga aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari, ularning vakillari esa amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnomalar bilan kelishlari so'raladi.

Hurmatli aksiyadorlar! Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi axborot va boshqa ma'lumotlarni jamiyat aksiyadorlariga sifatli va tezkor ravishda yetkazilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, elektron pochta orqali amalga oshirilishini inobatga olib, sizdan elektron pochta manzillarini (Email) taqdim etishingiz lozimligini ma'lum qilamiz.

Murojaat uchun telefonlar: **+99866-240-10-74, +99899-356-89-77, +99894-280-95-28.**

Elektron pochta manzili: **oqtoshdon@mail.ru**

Manzilimiz: **Narpay tumani J.Mirzayev ko'chasi, 2-uy.**

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.**“URGUT-SAXOVATI”****mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilari diqqatiga!**

“URGUT-SAXOVATI” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining umumiy hisobot yig'ilishi 2026-yil 18-iyun kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi.

KUN TARTIBIDA:

1. Jamiyatning 2025-yillik moliyaviy xo'jalik faoliyatini yakunlash yuzasidan jamiyat direktorining hisoboti.
2. Jamiyat bosh hisobchisining 2025-yilgi buxgalteriya, moliyaviy xo'jalik faoliyati bo'yicha hisoboti.
3. 2026-yil uchun tuzilgan shtatlar jadvali, biznes rejasini hamda 2025-yil yakuni bo'yicha berilgan auditor tekshiruv xulosasini tasdiqlash.
4. 2025-yilda olingan jamiyat sof foydasini ta'sischilar o'rtasida taqsimlash, hisoblangan dividend miqdori va to'lovini amalga oshirish tartibini tasdiqlash.
5. Davlat Aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasining 2026-yil 12-maydagi 1980-01/04-1-sonli xatida keltirib o'tilgan masalalar ijrosini ta'minlash masalasini ko'rib chiqish.

Manzilimiz: **Urgut tumani Do'stlik mahallasi, Pochvon ko'chasi.**

JAMIYAT MA'MURIYATI.**DA'VOLAR BO'LSA...**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Rofeyev Uktam Shamsiyevichga (2025-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisrovovna notarial idorasida marhum Djumanov Rahmatga (2022-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisrovovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Shamsiyev Shodiga (2023-yil 19-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltaevich notarial idorasida marhum Xakimov Negmatga (2013-yil 20-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi

ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltaevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Rustamga (2024-yil 15-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Ibragimov Ibroxim Muzafarovichga (2025-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Xudaykulov Taxirga (2010-yil 6-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

“BULUNG'UR DEHQON BOZORI”**mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilari diqqatiga!**

“Bulung'ur dehqon bozori” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2026-yil 19-iyun kuni soat 11:00 da jamiyat ma'muriy binosida bo'lib o'tadi.

KUN TARTIBIDA:

1. 2025-yil moliya xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi ijroiya organi hisoboti.
2. 2025-yil yakuni bilan tuzilgan buxgalteriya balansini tasdiqlash.
3. 2025-yil moliya xo'jalik faoliyati auditorlik tekshiruv natijalari va auditor xulosasini tasdiqlash.
4. 2025-yil jamiyat sof foydasini taqsimlash.
5. 2025-yil daromadlar va xarajatlar smetasini tasdiqlash.
6. 2026-yil daromadlar va xarajatlar smetasini tasdiqlash.
7. “Markaziy bozor” va “Oqtepa” filialida

ta'mirlash va yangi qurilish rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish masalasi.

8. O'zbekiston Respublikasining “Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida”gi Qonunning 31-moddasiga kiritilgan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar asosida jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash masalasi.

9. Tuman hokimining o'rinbosari N.Sanaqulovning 2026-yil 7-apreldagi “Oqtepa” filialidan davlat ehtiyoji uchun yer maydoni ajratishni so'rab yozgan 03/03/874-sonli arizasini ko'rib chiqish masalasi.

10. Jamiyat ustav fondini oshirish masalasi.

11. Boshqa masalalar.

Manzilimiz: **Bulung'ur tumani Sohibkor ko'chasi.**

JAMIYAT MA'MURIYATI.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Yuldashev A'lamxon Muminovichga (2025-yil 10-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Kazimova Miyassarga (2007-yil 6-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Adizova Fotimaga (2021-yil 12-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiyulovich notarial idorasida marhum Astanovna Muyassarga (2020-yil 24-sentyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiyulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

“DILSHOD-QAHRAMON”**mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilari diqqatiga!**

“DILSHOD-QAHROMON” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining umumiy hisobot yig'ilishi 2026-yil 16-iyun kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi.

KUN TARTIBIDA:

1. Jamiyatning 2025-yillik moliyaviy xo'jalik faoliyatini yakunlash yuzasidan jamiyat direktorining hisoboti.
2. Jamiyat bosh hisobchisining 2025-yilgi buxgalteriya, moliyaviy xo'jalik faoliyati bo'yicha hisoboti.
3. 2026-yil uchun tuzilgan shtatlar jadvali, biznes rejasini hamda 2025-yil uchun berilgan auditor tekshiruv xulosasini tasdiqlash.
4. 2025-yilda olingan jamiyat sof foydasini ta'sischilar o'rtasida taqsimlash, hisoblangan dividend miqdori va to'lovini amalga oshirish tartibini tasdiqlash.
5. Taftish komissiyasining 2025-yil yakuni bo'yicha hisoboti.
6. Kuzatuv kengashi hamda taftish komissiyasi a'zolarini saylash.
7. Davlat Aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasining 2026-yil 12-maydagi 1980-01/04-1-sonli xatida keltirib o'tilgan masalalar ijrosini ta'minlash masalasini ko'rib chiqish.

Manzilimiz: **Urgut tumani Gulobod mahallasi.**

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Raximov Farhod Xalimovichga (2025-yil 11-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Latipov Yadvarga (2009-yil 24-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

BEKOR QILINADI

Maxmudov Erkin Bozorovichga tegishli Samarqand tumani Gulbob mahallasi Husayn Boyqaro ko'chasi 32-uy-joyning kadastr hujjatlarini to'plam (kadastr raqami - 14:12:01:07:0731) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi “TEPLOSTORE” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311617450) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Majburiy ijro byuroosi Samarqand viloyati Bulung'ur tumani bo'limi davlat ijrochisi Nazirboyev Javoxir Xayrullo o'g'liga 20.08.2025-yilda berilgan PB 01758 raqamli ID guvohnomasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

«Sariq nimcha» lilar

shahrimizni obod qilyapti

Ertalab ishga yoki o'qishga otlanganingizda kayfiyatingiz yaxshi bo'lishi albatta, uydagi osuda hayot, tabiatning go'zalligi, ko'chalarning obod va ozoda ekanligiga ko'p jihatdan bog'liq. Oiladagi tinchlikka o'zingiz, ko'chadagi xotirjamlikka esa «sariq nimcha» kiygan odamlar mas'ul bo'ladi.



Har bir shahar va qishloqning ko'rki, avvalo, uning tozaligi va tartib-intizomi bilan belgilanadi. Ana shu ozodalikni ta'minlashda ularning mehnati beqiyos. Ular erta tongdan ish boshlab, ko'cha va hovlilar, jamoat joylarini tozalab, atrof-muhitni ozoda saqlash uchun sidqidildan mehnat qiladi.

Ammo... Navro'z Bayrami arafasida yosh yigit-qizlar Registon maydonidagi o'rindiqdanda birida o'tirib pista chaqib, po'chog'ini duch kelgan joyga tuflab tashlar edi. Shu yerdan o'tayotgan bir otaxon po'choqlarni yerga emas, chiqindi qutisiga tashlash kerakligini aytib, yoshlarga dakki berdi. Ular esa parvoyi palak, otaxon sal nari ketgach, yana pista po'chog'ini yerga tashlashardi.

Otaxon ularning bepisandlik qilganini ko'rib, orqasiga qaytib keldi va jahl

kundan-kunga soni oshib borayotgan rasmiy mehmon va sayyohlarning ko'z o'ngida Samarqand shahrining turistik jozibadorligini oshirish, tarixiy obidalarining ko'proq saqlanib qolishida ularning xizmati katta bo'lmoqda. Biroq tarixiy merosni asrab-avaylash o'rni unga ziyon keltiruvchilar ham uchrab turibdi. Uydagi chiqindini qopga solib, mashinada yo'l chetiga, gulxona va ariqchalarga tashlab ketuvchilar ham yo'q emas. Yo'l yoqalarida o'rnatilgan kuzatuv kameralari orqali bu kabi tartibbuzarlarni aniqlayapmiz, lekin baribir uchrab turibdi.

«Sariq nimcha»li xodimlar faqatgina supurish yoki chiqindilarni yig'ish bilan cheklanib qolmaydi. Ular daraxt va gullarni parvarishlab, yashil maydonlarni asrab-avaylashga ham hissa qo'shadir. Bahor va yoz oylarida hududlarni ko'kalamzorlashtirish, gul ekish va ularni parvarishlash ishlari katta mehnat talab etadi. Qishda esa ularning mehnati yanada og'irlashadi. Yo'lak va ko'chalarni tozalash, mulzamlarni bartaraf etish orqali aholi xavfsizligini ta'minlashga hissa qo'shadir. Yozda esa chang va issiqqa qaramay, tozalikni saqlashga fidoyilik ko'rsatadilar.

Obodonlashtirish xodimlari jamoat joylarida sanitariya holatini nazorat qilib, aholini ham tozalikka rioya qilishga chorlaydi. Ular o'z mehnati orqali hududni toza saqlash bilan birga insonlarda estetik did va tabiatga ehtirom tu'g'usini ham shakllantiradi. Ularining mehnatini qadrlash, hurmat bilan munosabatda bo'lish har birimizning insoniy burchimizga aylanishi kerak emasmi?

Dilmurod TO'XTAYEV.

Shundan so'ng yigitlar o'rindan turib ketdi. - Birgina Registon maydonida har kuni o'nga yaqin obodonchilik xodimi tozalikni ta'minlab turish uchun mehnat qiladi, - deydi viloyat obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish departamenti boshlig'i Baxtiyor Jo'rayev. - Ayniqsa,

«Biz shu qadar «bechora»mizki, hatto pishloqning mog'orlaganini yeb, vinoning eskisini ichishga majburmiz. Mashinamizning esa tomi ham yo'q... Qishda issiq kiyim topolmaganimizdan «issiq o'lkalar»ga qochib qolamiz». Komik aktyor Lesli Nilsenning bu mashhur satirasi shunchaki sho'xlik emas, balki bugungi ayrim «kambag'al» san'atkorlarimizning ahvoliga chizgidek go'yo. Ayniqsa, «solliq» so'zini eshitib, dod-faryod qilayotgan «yulduz»larning holatiga bu kinoya juda mos tushadi.

«Bechora»lik — chorami?

Bunday «chiqishlarda ayrim «bechora»lar kredit og'irligidan nolisga, boshqalari davlat tadbirlarida bepul xizmat qilishini minnat bilan pesh qiladi. Vaholanki, viloyatlarda qo'y so'yib kutib olinadigan, yuksak hurmat-ehtirom bilan qarshilantirilgan bayram va marosimlarda ishtirok etish ular uchun go'yo «og'ir majburiyat» emish. Aslida esa xalqning ardog'ida bo'lish va yurt xizmatida turish har bir ijodkor uchun sharaflar bo'lishi kerak emasmi?

Keling, tarixga nazar tashlaylik. Haqiqiy san'atkorlar qanday bo'lgan? Masalan, Lutfoxonim Sarimsoqova front olovi ichida, bombalar yomg'iri ostida konsert bergan. U xalq qalbiga umid ulashgan bo'lsa-da, «Xalq artisti» unvonini urush tugaganidan 12 yil o'tib olgan. Tamaraxonim esa Katta Farg'ona kanali qurilishida nafaqat sahnada, balki mehnat maydonida ham yelkadosh bo'lgan. Keyinchalik front bo'ylab bergan konsertlaridan tushgan mablag'larni armiya fondiga o'tkazib, g'alabaga beqiyos hissa qo'shgan. Ular minnat qilmagan, hisob-kitob bilan yashamagan. Ular Vatan, xalq va burch tushunchalarini qalb amri bilan his qilganlar. Shu bois bugun «bechoralik» niqobi ortiga

yashirilib, soliqdang qochishga urinish nafaqat kulgi, balki achinarlidir. Zero, haqiqiy san'atkor nafaqat sahnadagi mahorati, balki jamiyat oldidagi mas'uliyati bilan ham ulug'dir.

Bir qarang: kun bo'yi ter to'kib, million so'mga ham yetmaydigan maosh oluvchi farrosh, qorovul yoki temir bilan tillashib, halol rizq topayotgan chilangar... Ular oylikdan-oylikka zo'rg'a yetsa-da, davlat oldidagi majburiyatini — soliqlarini vaqtida to'laydi. Endi «bechora» san'atkorlarga boqing: baland sahnalar, yorug' projektorlar, tinimsiz oqlashlar va millionlab gonorarlar... Bir kechada oddiy mehnatkash bir yilda topolmaydigan mablag'ni ishlab topayotganlar nega soliq to'lmaslik kerak? Nega mashhurlik ayrimlar uchun imtiyozga, soliq esa «jazo»ga aylani qoldi?

Bugun kambag'allikka qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Joylarda rahbarlar va tadbirkorlar ehtiyojmand oilalarni farovon hayotga qaytarish uchun bor kuch-imkoniyatini safarbar etmoqda. Nazarimda, «bechora» san'atkorlar masalasi ham yangicha, adolatli va prinsipial yondashuv vaqti keldi. Endilikda har bir

qo'shiqchidan faqat daromadiga yarasha soliq olish bilan cheklanmay, ularni muhtoj oilalarga biriktirish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim. Bu nafaqat moddiy ko'mak, balki yulduzlarimizda jamiyat oldidagi mas'uliyatini yashash madaniyatini shakllantiradi. Shoyad, shunda ular uchun «Vatan» va «xalq» so'zlari shunchaki balandparvoz jumla emas, balki yurakdan his qilindigan muqaddas burchga aylansa. Shu bilan birga, xorijda biznes yuritayotgan ayrim «erkatoy» san'atkorlarga o'z yurtida ham ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yangi ish o'rinlari yaratish kabi aniq va majburiy ijtimoiy vazifalar yuklanishi shart. Zero, ona yurtida topgan obro' va imkoniyat, avvalo, shu yurtning ravnaqiga xizmat qilishi lozim. Ana shundagina adolat ham, insof ham, vijdan ham o'z o'rini topadi. Chuniki haqiqiy ulug'lik faqat sahnadagi chiqishlarda emas, balki xalq oldidagi burchni sidqidildan ado etishda namoyon bo'ladi.

«San'atkor — jamiyat ko'zguisi», deymiz. Demak, o'sha ko'zguna faqat bezakli obraz emas, balki haqiqiy insoniylik, mas'uliyat va adolat ham aks etishi shart. Shuhrat NORMURODOV.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 20–80-yillarida avval Rossiya imperiyasining mustamlakachiligi, keyinchalik sovet hokimiyatining O'zbekistondagi qatag'on siyosati tarixini o'rganish nafaqat O'zbekiston tarixchilarining, qolaversa, xorij tadqiqotchilarining diqqat markazidagi mavzulardan hisoblanadi.

«Qatag'on» so'zi birinchi holatda «taqiq», «man etish» ma'nolarini bildirsa, ikkinchi holatda repressiya ma'nosida qo'llangan. «Repressiya» so'zi lotincha «repression» — «kuch bilan bostirish, to'xtatish» ma'nosini anglatgan.

Sovet hokimiyatining qatag'on siyosati siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-mafkuraviy sohalarida o'tkazildi. Siyosiy va iqtisodiy qatag'onlar qizil terror, saylov huquqidan mahrum qilish, mardikorlikka olish, quloqlashtirish, surgun, katta qirg'in va deportatsiyalar shaklida bo'lsa, ma'naviy-mafkuraviy qatag'onlar milliy, diniy qadriyatlarini cheklash, xalqning madaniy merosini yo'q qilish, senzura va boshqa yo'nalishlarda amalga oshirildi.

XX asrning 20–30-yillarida o'zbek qishloqlarida katta nufuzga ega bo'lgan boy dehqonlar, diniy ulamolar va boshqa mulkdorlar bilan bir qatorda, kolxoz tuzumi va sovet hokimiyatining boshqa agrar sohadagi tadbirlariga ochiq-oshkora qarshi chiqqan kambag'al va o'rtahollarga nisbatan ham qo'llanildi.

Siyosiy qatag'on qurbonlari shafqatsizlaracha jazolandi, ularga ma'muriy tartibda ruhiy bosim o'tkazildi, ozodlikdan mahrum etildi yoki jismonan yo'q qilindi.

Bunday qatag'on funksiyalari ijtimoiy tabiatiga ko'ra ikki guruhga — butun jamiyatga va muayyan shaxsga yo'naltirildi. Jamiyatning barqarorligiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan g'oyalar, xatti-harakatlar ustidan nazorat o'rnatildi. Ijtimoiy guruhlar o'rtasida o'zaro adovat qo'zg'atildi, bir-biriga dushmanlik kayfiyati kuchaytirildi. Jamiyat axloqining buzilishi, milliy va diniy qadriyatlar inqirozi, ommaning ruhiy zo'riqishi va ijtimoiy qo'rquvning yayilishi-ga olib keldi.

O'tgan yili Buyuk Britaniyada o'tkazilgan so'rovda qatnashgan o'smirlarning 50 foizi ko'chaga bo'yanmasdan chiqmasligini ma'lum qilgan. Demak, o'smirlarning katta qismi bo'yanish normal holat, deb hisoblaydi. Ijtimoiy tarmoqlar kosmetika bozorining turli ko'rinishdagi reklamalari bilan shunchalik to'lib-toshganki, bu holat bugun bizga ham begona emas. Ya'ni, qizlarda shundog'am tabiiy istak sifatida paydo bo'ladigan chiroyli ko'rinish, tarmoqlardagi pardoz reklamasi bilan mashhur qizlarga taqlidni yanada oshirib yubordi.

MAKE UP:

o'smir qizlar uchun tabiiy holmi?

Maktabda faoliyat yuritgan va boshqa maktab o'qituvchilari bilan shu mavzuda suhbatlashganim uchun bugun bizda o'quvchi qizlar 12 yoshdanoq bo'yanib kelishga qiziqishlarini kuzatdim. Ba'zilar buni ota-onasidan yashirincha amalga oshirsa, ba'zilarining ota-onasi qizlarini qo'llab-quvvatlaydi. Ya'ni, ota-onalar ham bu masalada ikki toifada. Birlari qizining bo'yanishiga qarshi, ba'zilar qizlarini qo'llab, ularga yordam beradi. O'z sinfimdagi onalarning ko'pchiligi «Nima qilishni bilmayapmiz, gap uqitirish beryoz», deb fikr bildirishadi.

Xo'sh, bu masalada mutaxassislar nima deydi?

O'smirlar qizlarda o'ziga ishonch shakllanadigan payt, tengdoshlari bilan muomalamunosabatda o'zgarishlar katta e'tibor berishadi, - deydi o'smirlar psixologi Matluba Rabbimova. - O'zlariga oro berishni, kiyimiga e'tibor ber-



ishni istashadi, boshqalardan ajralib turish hissi paydo bo'ladi. Ko'pchilik onalar qizining bo'yana boshlaganidan tashvishga tushadi. Lekin bu paytda ularga keskin qarshilik qilish ham yaramaydi. Onalar bu masalada qizlari bilan ochiqcha va doimiy suhbatlashib turishi kerak. Bo'yanishning ba'zi turlariga ruxsat berishlari, lekin bu kosmetika ularning yuziga mos kelish yoki mos kelmasligini nazorat qilishlari lozim. Bo'yanish maktab muhitiga mos bo'lishi, ya'ni o'smir yuzida u

deyarli bilinmasligi kerak. Imkoni boricha qizga tabiiy go'zalligi haqda gapirib, bo'yanish muhim emasligini uqitirish lozim.

Yosh qizlarga «tonalka», ya'ni yuzni oqartirib, tekislovchi krem surtish ziyon, chunki bu teridagi moddalar almashinuviga zarar yetkazadi. - deydi Respublika dermatovenerologiya va kosmetologiya markazi viloyat filiali shifokori Sabina Najmiddinova. - Kipriklarini bo'yash ham zararli, chunki bu yoshda kiprik juda nozik bo'ladi. Qizlar hozir yuzidagi husnbuzarlardan uyali, yni yashiraman deb boshqa muammoga duch kelishlari mumkin. Terida muammo bo'lmasligi uchun to'g'ri ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish kerak, har kuni 2 litr suv ichish kerak. Ayollar 30 yoshdan keyin kollagen ichishlari lozim.

Xo'sh, bu masalada Siz nima deysiz, aziz gazetxon? Munisa SHAMSIYEVA, o'qituvchi.


Ajdodlar xotirasi o'chmaydi

Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan qatag'on siyosatining oxirgisi «Paxta ishi» sifatida tarixga kirdi. «Paxta ishi» — O'zbekistonda 1983–1990-yillarda keng miqyosda olib borilgan sud-tergov jarayonlarining rasmiy nomi.

O'zbek xalqi mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatimizda olib borilgan eng xayrli va eng savobli ishlardan biri sovet hokimiyati yillarida «xalq dushmani», «aksilingilobchi», «millatchi», «quloq» sifatida va «paxta ishi» bo'yicha qoralanib, qatag'on qilingan vatandoshlarimiz pok nomlarining oqlanishi bo'ldi. Buning isboti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi «Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish, ular xotirasini abadiylashtirish to'g'risida»gi farmoyishi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi «Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurt-doshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida»gi qarori natijasida qatag'on qurbonlari bo'lgan yurtdoshlarimizning xotirasini abadiylashtirish ishiga katta e'tibor qaratildi.

Samarqand viloyatida ham ushbu farmoyish hamda qaror ijrosi yuzasidan olib borilayotgan ishlar o'z samarasini bermog'ida. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi hududiy muzeyi xodimlari, ilmiy-ishchi guruh a'zolari tomonidan turli arxivlarda olib borilgan izlanishlar, boshqa manbalardan olingan hujjatlar asosida hozircha 6000 nafardan ziyod samarqandlik qatag'on qurbonlari nomma-nom aniqlandi.

O'tgan yilning oxirida Toshkentdagi «MATRIX» nashriyatida Qatag'on qurbonlari xotirasi hududiy muzey xodimlarining 5-6 yil davomida olib borgan izlanishlari mahsul sifatida Samarqand viloyati «Qatag'on qurbonlari xotira kitobi» nashrdan chiqarildi. Unga 4147 nafar qatag'on



qurboni haqidagi ma'lumot kiritilgan. Kitobning 1100 dan ziyod nusxasi viloyatdagi mahalla fuqarolar yig'inlariga tarqatildi. Namlari kitobga kiritilgan qatag'on qurbonlarining 1007 nafari chor mustamlakachiligi davrida, 1860–1916-yillarda milliy ozodlik uchun kurashlardagi ishtiroki uchun, mardikorlikka safarbarlik tufayli jabrlangan vatandoshlarimiz. 233 nafari 1917–1924-yillarda sho'ro hokimiyati tomonidan qatl etilgan, qamalgan va surgun qilingan milliy qurolli qarshilik ishtirokchilari, ziyolilar, din namoyandalari hamda jamiyatning boshqa qatlamiga mansub kishilar. 750 nafari 1925–1936-yillarda amalga oshirilgan jamoalashtirish, quloqlashtirish davrida jabrlangan, turli siyosiy ayblovlar bilan qatag'on qilinganlar. 1909 nafari 1937–1938-yillarda amalga oshirilgan «Katta qirg'in» davomida ottilgan, qamoqqa olingan va umri konsentratsion lagerlarda xazon bo'lganlar. 105 nafari 1940–1950-yillardagi qatag'onlarda jabrlanganlar. 143 nafari «Paxta ishi» tufayli nohaq ayblanib qatag'on etilgan samarqandliklardir.

Hozirgi paytda muzey xodimlari «Xotira kitobi»ning ikkinchi jildini tayyorlash ustida ishlamoqda.

Muzaffar MUQIMOV, Qatag'on qurbonlari xotirasi hududiy muzeyi direktori. Shokir G'AFFOROV, tarix fanlari doktori, professor.

MATBUOT UYI
Zarafshon
С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 712 nusxada chop etildi. Buyurtma 201. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda